

Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

XORIJIY MAMLAKATLARDA TADBIRKORLIK KORXONALARI  
FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING GLOBAL TAJRIBASI VA  
UNING SAMARALI TATBIQI

Karimov Shahbozxo‘ja Xamdamjon o‘g‘li  
o‘qituvchi, Farg‘ona davlat universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik korxonalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning global tajribasi ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda yirik va rivojlangan iqtisodiyotlar, shuningdek rivojlanayotgan davlatlar misolida subsidiya tizimlari, soliq imtiyozlari, moliyaviy va huquqiy mexanizmlar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, ushbu tajribani O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va innovatsion iqtisodiy siyosatni shakllantirishda samarali qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mamlakatimizda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, ish o‘rinlarini yaratish va raqobatbardosh bozorni shakllantirishga ilmiy-amaliy yo‘l ko‘rsatadi.

**Abstract.** This study provides a scientific analysis of global practices in supporting the activities of entrepreneurial enterprises in foreign countries. The research examines subsidy schemes, tax incentives, financial and legal mechanisms in both developed and developing economies. Moreover, the study evaluates the applicability of these international experiences to enhance entrepreneurship development and to shape innovative economic policies in Uzbekistan. The findings offer practical and scientific guidance for promoting small and medium-sized enterprises, creating employment opportunities, and fostering a competitive market environment.

**Аннотация.** В данной статье проведён научный анализ мирового опыта поддержки деятельности предпринимательских предприятий в зарубежных странах. В исследовании рассматриваются системы субсидий, налоговые льготы, финансовые и правовые механизмы как в развитых, так и в развивающихся экономиках. Кроме того, оцениваются возможности эффективного применения международного опыта для развития предпринимательства и формирования инновационной экономической политики в Узбекистане. Результаты исследования предоставляют научно-практические рекомендации по поддержке малого и среднего бизнеса, созданию рабочих мест и формированию конкурентоспособного рыночного окружения.

**Kalit so‘zlar:** tadbirkorlik korxonalari, global tajriba, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, subsidiya tizimi, soliq imtiyozlari, moliyaviy rag‘batlar, iqtisodiy rivojlanish, innovatsion siyosat

**Keywords:** entrepreneurial enterprises, global experience, support mechanisms, subsidy system, tax incentives, financial incentives, economic development, innovative policy

**Ключевые слова:** предпринимательские предприятия, мировой опыт, механизмы поддержки, система субсидий, налоговые льготы, финансовые стимулы, экономическое развитие, инновационная политика



Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik eng samarali va innovatsion tashkiliy shakllardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ilmiy yondashuvlarga ko'ra, aynan tsivilizatsiyalashgan tadbirkorlar sinfi bozor iqtisodiyotining asosiy drayveri, ya'ni iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va innovatsiyalarni joriy etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Kichik biznes subyektlari o'zining moslashuvchanligi, bozor kon'yunkturasi ga tez javob qaytarishi va resurslardan nisbatan samarali foydalanishi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, yirik korxonalar faoliyatini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, ularning boshqaruv tizimi ko'pincha murakkab tashkiliy tuzilma va ortiqcha byurokratik jarayonlar bilan tavsiflanadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonining sekinlashuviga, resurslarning markazlashuvi ortidan ularni optimal taqsimlashdagi muammolarga hamda iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Natijada, yirik biznes subyektlarida ma'muriyatchilik unsurlarining kuchayishi va xo'jalik yuritish faoliyatida muvozanatning buzilishi ehtimoli ortadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki raqobat muhitini kuchaytirish, iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishishning muhim omili sifatida qaralmoqda [1].

Xorijiy davlatlardagi kichik biznesning rivojlanishining yana bir sababi tariqasida hozirgi kundagi ishlab chiqarish yakka iste'mol ehtiyojini qondirishga burilayotganini ham aytib o'tish kerak. AQShda umumiy ishlab chiqarilayotgan detallarning 75% 50 donagacha bo'lgan partiyalarni tashkil etadi. Rivojlangan davlatlarning iqtisodiyotini yuqori ish haqi va bo'sh vaqt ehtiyoji tariqasida ta'riflanadi. Bu holatda tadbirkorlik faoliyatining mazmuni ham o'zgarib boshlaydi. AQSh iqtisodidagi kichik sektorning ulushi nafaqat yalpi ichki mahsulotda, balki unda ishlovchilar sonida ham katta. Kichik biznesni rivojlantirishning 900 dan ortiq markazlari kichik va o'rta firmalarga konsultatsiya beradilar, boshlovchi tadbirkorlarga biznes-rejalar tayyorlashda, davlat tashkilotlaridan moliyaviy yordam olishda ko'maklashadilar.

Yaponiyada ham kichik biznes sezilarli rol o'ynaydi. Bunga kichik va o'rta kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi yaratilganligi imkon berdi. Shu narsa diqqatga sazovorki, Yaponiya qonunchiligi kichik va o'rta korxonalarini ular rivojining barcha bosqichlarida imtiyozli qarz va kreditlar berish, turli soliq, imtiyozlaridan foydalanish, texnika va maslahat yordami ko'rsatish, axborot xizmatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish asosida rag'batlantirishni nazarda tutadi. Yaponiya sanoatining bu sektorida kichik biznes shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil soliq, imtiyozlari va puxta moliya siyosati bilan bir qatorda kichik korxonalariga kredit beruvchi xususiy banklarga beriladigan kafolatlar tizimidir.

Janubiy Koreya, Singapur va Gonkongda kichik va o'rta korxonalariga zarur kapitalning 50 foizgachasi davlat tomonidan berilgan, shuningdek davlat uzoq, muddatli kreditlar bo'yicha foizlar summasining yarmini to'lashni ham o'z zimmasiga olgan. Lotin Amerikasi mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni turli moliya-kredit



Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

muassasalari: Peruda Rivojlanish moliya korporatsiyasi, Boliviyada Los va Andes Omonat kassasi va Birdamlik banki, Urugvayda Milliy rivojlanish korporatsiyasi, Kolumbiyada milliy Kafolat fondi va boshqalar qo‘llab-quvvatlaydilar [2]. Kichik tadbirkorlik sektori turli mamlakatlar iqtisodiyotida nihoyatda muhim vazifani bajarmoqda. Masalan, AQShda turli yo‘nalishdagi 19 mln.dan ortiq mustaqil firmaning 90 foizdan ziyodi mayda korxonalarini tashkil etadi. Yaponiyada o‘rta va kichik korxonalar tarkibiga kiradigan 10 mln.dan ortiq mustaqil kompaniyalar mavjud bo‘lib, ularning 99 foizi kichik biznes sektorida faoliyat ko‘rsatar ekan, AQSh va Yaponiyada ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning 60 foizdan ortig‘i ana shunday korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan majmuaviy kompleks tuzilma bo‘lib, bunda tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish qonuniy asoslab qo‘yilgan hamda tadbirkorlar imtiyozli sur‘atda kredit resurslari imkoniyatlaridan foydalanadilar. Imtiyozli soliq to‘lash imkoniyatlariga ega, ishlab chiqarish, moliya, fan, bozor infratuzilmasidagi jami afzalliklar va yangiliklardan, o‘zlariga manfaatli bo‘lgan iqtisodiy o‘shishga ko‘maklashuvchi barcha omillardan foydalanadilar.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kichik va o‘rta tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirishda ularning iqtisodiy tarmoq yo‘nalishlariga va iste‘mol bozorlari talablaridan kelib chiqib, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni tashkil etish va natijada ishsizlikni oldini olish, mehnat resurslarini ish joylari bilan ta‘minlashga erishish orqali iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish mumkin deb hisoblaydilar. Yevropa Ittifoqidagi barcha biznesning 99% ni kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B) tashkil qiladi.

Italiya davlatining iqtisodiy siyosatida kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda samarali iqtisodiy jihatdan ularning faoliyatlarini rivojlantirishga iqtisodiy jihatdan yordam berishiga qaramay, ulardan soliq imtiyozi qo‘llanilmaydi. Mamlakatning hamma korxonalari, shu jumladan, kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari faqat mamlakat darajasida soliqqa tortiladi. Viloyat va mahalliy darajada korxonalar soliqqa tortiladi. Faqat kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari uchun imtiyozlar asosan moliyaviy tomondan emas, balki texnika vositalarini xarid qilish tomonidan imtiyozlarga ega. Bu imtiyozlar kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalariga asosan kredit olishda, yangi kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini tashkil etishda va yangi innovatsion ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini o‘zlashtirishda moliyaviy yordam beradilar. Kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshirishda shu mamlakat ichida tashkil etadigan bo‘lsa 1,0 mln. liralik imtiyozli kredit olishi mumkin [3].

Kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, ularning faoliyatlarini kengaytirish, modernizatsiyalash, qayta ko‘rish, ishlab chiqarish yo‘nalishlarini o‘zgartirish, territoriyalar yo‘nalishlarida bo‘ladigan o‘zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiy mintaqada darajasida kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini qo‘shish bo‘yicha konsortsium o‘tkazish va kapital xarajatlariga bo‘lgan zaruriyatni ta‘minlash uchun imtiyozli kredit berish belgilangan. Janubiy mintaqalarda konsortsiumni tashkil etish va



Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

kredit berish foizi 30% ni rivojlangan mintaqalarda 60% tashkil etadi. Ayrim vaqtlarda u olingan kredit kapitalining 80% ga ham o'sishi mumkin. Boshqa iqtisodiy zonalarda esa 60% gacha foiz to'lashlari mumkin. Ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash maqsadida kredit olinganda asosan jihozlar, avtomatlashtirilgan texnologik liniyalarni sotib olishda, patent va litsenziyalar sotib olishda laboratoriya uchun zarur bo'lgan jihozlarni, korxonalar konstruktorlik byurolarini tashkil etishda va ekologiyaga salbiy ta'sir etmagan holda yetti yilgacha 70% investitsiya xarajatlarini qoplash bilan 3mlrd. liragacha 23,0%da imtiyozli kredit ajratiladi.

Frantsiyada kichik va o'rta tadbirkorlik korxonalarini ITTKI ishlarini rivojlantirish maqsadida soliq imtiyozlaridan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun olingan kredit to'lovlari imtiyozlaridan foydalanadilar. Frantsiyada 2014 yildan boshlab innovatsion kredit solig'idan 30-40% gacha ITTKI yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha imtiyozga egadirlar. Davlat tomonidan yosh innovatsion korxonalar statusi ishlab chiqilgan korxonalar belgilangan. Jumladan, qanday korxonalar kichik va o'rta korxonalar bo'lishiga javob berishlari, ITTKI ilmiy tadqiqot ishlariga sarflangan innovatsion mablag', uning umumiy xarajatlarini 15% dan ortiq bo'lishiga umumiy rivojlanishga ajratilgan mablag'larning 50% jismoniy shaxslarga tegishli bo'lishi belgilangan. Kichik va o'rta biznes tadbirkorligiga ishlab chiqarish korxonalarini qiyin iqtisodiy holatda qolgan paytlarida ularga 3 yildan keyin sanatsiya tariqasida yordam beriladi.

Germaniya Respublikasida esa kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug'ullanayotgan korxonalarini huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan doimo ularni qo'llab-quvvatlaydilar. Davlat tomonidan kichik va o'rta biznes tadbirkorligini tashkil etishni samarali olib borish bo'yicha maslahatlar berish zarur bo'lgan axborotlar bilan ularni ta'minlash, xodimlarni malakalarini oshirish bo'yicha maxsus kurslarini tashkil etish va ularni faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish va boshqarish bo'yicha maslahatlar beruvchi shahobchalar tashkil etilgan.

Germaniyada ishlab chiqarish asosan yakka tartibdagi tadbirkorlik shaklida 2293,4 ming o'rtoqlik boshqaruv shirkatlarida 453,7 ming xo'jalik mas'uliyati cheklangan xo'jaliklarda va aksioner jamiyatlari 666,2 ming va turli tashkiliy formadagi korxonalar 216,3 ming ni tashkil etadi. Germaniya Respublikasida 3629,7 ming korxonalar o'z faoliyatlarini olib borsalarda, ularning 65% kichik tadbirkorlik sub'yektlari bo'lib 18% xo'jalik jamiyati kapitaliga asoslangan. Germaniya Respublikasida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha yangi korxonalarini tashkil etishda Yevropa Ittifoqida birinchi o'rinda turadi.

Buyuk Britaniyada kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlashda ularni o'zining maxsus qabul qilingan kontseptsiya asosida shart va sharoitlarni yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan bandlik 54% ni, yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishda 50,2% ni va ishlab chiqarishni olib borayotgan korxonalarining 96,6% kichik va o'rta tadbirkorlik korxonalarini hissasiga to'g'ri kelgan. Buyuk Britaniyada 2000-yil aprel oyidan boshlab kichik biznesni xizmati maxsus tashkiloti tuzilgan bo'lib, u Savdo va sanoat vazirligining bir xizmat ko'rsatuvchi bo'limi hisoblanadi.



Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

Osiyoning janubiy sharqida Xitoy Koreya va Hindiston mamlakatlarida davlatlar tomonidan kichik va o'rta ishlab chiqarish faoliyatlarini olib borishda ularni qo'llab-quvvatlash tajribalari o'zining xususiyatiga ega bo'lib, uni o'rganishni talab etadi. Xitoy mamlakatlarida ham kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga davlat tomonidan katta e'tibor beriladi. Bu iqtisodiy yo'nalishda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun asosan investitsiya mablag'larini jalb qilish, kredit berishni kengaytirishga yo'naltirilgan.

Kichik va o'rta tadbirkorlik korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatlarini olib berishlari tartibga solishni bozor iqtisodiyoti talablari bilan hamohang holda rivojlanishiga erishishni talab etadi. Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish birlashma a'zolari mamlakatlarida kichik va o'rta biznesni davlat tomonidan iqtisodiy jihatdan qabul qilinayotgan qonunlar asosida qo'llab boriladi. Masalan, Germaniya, Ispaniya, Yaponiya va Yangi Zenlandiya mamlakatlarida qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning 1/2 qismi.

Turkiya mamlakatida ham kichik va o'rta tadbirkorlik korxonalarini asosan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, ularni ishlab chiqargan mahsulotlari jahon iste'mol bozori standartlariga to'liq javob berishi bilan ajralib turadi. Turkiya hukumati tomonidan kichik va o'rta ishlab chiqarish tadbirkorlik korxonalariga ularning mahsulotlarini xorijiy iste'mol bozorlarida sotishda va xalqaro ko'rgazmalarda qatnashishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni ma'lum qismini qaytarish, xorijiy xarid qiluvchi sub'yektlarni uchrashuv xarajatlarini qaytarish tovarlarni samarali eksportida soliq imtiyozlarini berish bilan yaqindan yordam beradi. Turkiyada qabul qilingan 2009-yil 18-fevraldagi No5838-son Qonunga asosan korporativ to'qimachilik sanoatida 50 va undan ortiq ishchi ishlaganda korporativ soliq fondi stavkasi 75% hisobda diskontlangan. Natijada uning soliq stavkasi 20% dan 5% ga kamayadi. Turkiya o'zining ishlab chiqargan mahsulotlarni ichki iste'mol bozorlarida himoya qilish uchun import qilinadigan masalan to'qimachilik tovarlariga tayyor kiyim boshlarga 30%, to'qimachilik mahsulotlariga 20% bojxona to'lovlarini kiritish asosida ichki ishlab chiqarish korxonalarini iste'mol bozorlarini himoya qilish hisobiga import mahsulotlarini kirib kelishini 15% ga tayyor kiyim-kechaklarni kirib kelishini 25% ga kamaytirishga erishgan.

Xorijiy mamlakatlarda kichik va o'rta tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarini xorijiy iste'mol bozoriga chiqishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab, tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda, ular tomonidan yaratilgan mahsulotlar iste'mol bozorlarida raqobatdosh bo'lishini ta'minlashga, ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirishga, iste'mol narxlarini arzonlashtirishga va olayotgan foydani o'sib borishiga erishiladi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida Janubiy Koreya, Isroil, Malayziya va Iordaniya davlatlarida ham foydali tajribalar to'plangan. Xorijiy mamlakatlar tajribalarida, *birinchidan*, rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim iqtisodiy omillardan biri, bu kichik biznes rivoji bo'lib, bu boradagi har qanday umummanfaatini ko'zlagan samarali faoliyatlar davlat ahamiyatiga ega bo'ladi va qo'llab-quvvatlanadi. Zero, kichik biznes faoliyati o'sib, yanada samarali biznesga aylanishi, mamlakat ichki bozorini tovar hamda xizmatlar turlari bilan to'ldirishi, shu tariqa eksport salohiyati rivojiga hissa qo'shilishi, aholining ish bilan bandligi muammosi yechilishiga



Date: 3<sup>rd</sup> April-2026

ko'maklashuvi, aholining real daromadi o'sishiga, pirovard natijada aholining turmush darajasini yuksalishiga olib keladi [2].

*Ikkinchidan*, iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida, jahon bozorida raqobat kuchayayotgan bir paytda, yirik korxonalaridan ko'ra aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida raqobatga dosh berish, manevrlar qilish, ishlab chiqarish yo'nalishini o'zgartirish kabi iqtisodiy chora tadbirlar ko'rish oson kechadi. Ko'rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi mavjud bo'lib, bu hol raqobatning kuchayishi sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy muhitning barqaror taraqqiy etishini ta'minlaydi. Bu esa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining to'laqonli rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mavjud barcha xo'jalik sub'yektlarining 90 foizidan ortig'ini kichik biznes korxonalarida tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 53,9% yaqini, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 27,5% va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 97,0% aynan shu soha - xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri kelmoqda. Taqqoslaydigan bo'lsak, umumiy bandlikda kichik biznesning ulushi AQShda 54%, Buyuk Britaniyada 56%, Germaniyada 69,5%, Italiyada esa 71 %ni tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jahon amaliyotida hamda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinlarini barpo qilishda, bozor o'zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlamoqda.

Ko'pchilik mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga, uning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi bozor munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Axunova Sh.N. Rivojlangan davlatlarda tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi. SCIENTIFIC PROGRESS, VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022, Uzbekistan, 691-694b., [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)
2. Normurodov B.T. Xususiy tadbirkorlik faoliyati va uni rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar. Academic Research in Educational Sciences, Multidisciplinary Scientific Journal, February, 2022, Volume 3 | Issue 2 | 2022, 12-17b., [https://t.me/ares\\_uz](https://t.me/ares_uz)
3. Ruziyeva D.I. Kichik biznes subyektlarini samarali investitsiyalashning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, oktyabr. No10-son., 471-480b.

